

O'ZBEKISTONDA MAQOM TARG'IBOTI BO'YICHA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR.

Toshboyeva Madina

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa
san'ati institute*

*Maqom san'ati uchun asosiy mavzu, eng avvalo, shaxs,
uning erki va qadri, tinchlik-totuvlik, hamjihatlik va
umumbashariy taraqqiyot hisoblanadi.*

Shavkat Mirziyoyev

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.10.2025

Revised: 12.10.2025

Accepted: 13.10.2025

KALIT SO'ZLAR:

*Maqom, musiqa,
o'zbek milliy
cholg'ulari, ijrochilik,
maqom ansamblari.*

ANNOTATSIYA:

*O'zbek maqom san'ati – bu Markaziy Osiyoning
musiqa merosida alohida o'rinn tutgan, asosan vokal
va cholg'u ijrochilik san'ati bilan bog'liq bo'lgan
an'anaviy musiqa janridir. U asrlar davomida
shakllanib, o'zbek xalqining madaniy merosining
ajralmas qismiga aylanib kelgan. Maqom san'ati
butun Sharq musiqa madaniyatining qimmatli
tarkibiy qismi sifatida, nafaqat O'zbekistonda, balki
Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida ham
o'rganilgan va e'zozlanadi. Maqomlar o'zining
shakllanishi va rivojlanishida bir qator bosqichlarni
o'tkazgan bo'lib ushbu maqolada shu to'g'risiqa
gap boradi. Shu bilan birgalikda yurtimizda
maqomga bo'lgan e'tibor va yurtboshimiz
tomonidan olib borilayotgan qator islohotlar
borasida maqolada yoritib boriladi.*

O‘zbek maqom san’atining rivojlanishida har bir bosqich o‘ziga xos musiqiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Maqomlar ko‘pchilik Sharq xalqlari musiqa merosida mavjud. Ular shu xalqlar milliy musiqasining asosini tashkil etadi. Maqomlar nazariy va amaliy asoslarga ega bo‘lib, mazkur xalqlar musiqa san’atining ustozona uslubdagi namunasidir. Maqomlar, xususan, o‘zbek va tojik xalqlarining ma’naviy mulki bo‘lmish Shashmaqom ko‘p asrlar davomida bu sohada olib borilgan ijodiy izlanishlarning samarasidir. Ustoz sozanda va xonandalar keyingi avlodlarga ko‘z qorachigidek asrab-avaylab bizgacha yetkazib kelgan maqom namunalari hozirgi kunda nafosat dunyosidagi eng zo‘r, beqiyos qiymatga ega bo‘lgan musiqa san’atimiz boyliklari sifatida chinakam xalq mulkiga aylandi. O‘zbek maqom san’ati qadim zamonlardan boshlanadi. Shu davrda maqomlarning birinchi shakllari paydo bo‘lgani taxmin qilinadi. Xususan, Sog‘diylar va Buxoro amirligi davrlarida maqom san’ati dastlabki shakllanish jarayonini boshladi. Shu asrda musiqaning dastlabki shakllari an’anaviy diniy marosimlar va ijtimoiy tadbirlarda ijro etildi. Maqom san’ati asosan og‘zaki an’analar orqali avloddan-avlodga o‘rgatildi. Dastlabki maqomlar qat’iy notalarga asoslanmagan bo‘lib, ularning ijrosi xalqqa xos musiqiy an’analar va tabiatdan ilhomlanib, improvizatsiya tarzida amalga oshirilgan. Maqom san’ati X asrda ilm-fan va madaniyat markazlarida rivojlanib, o‘zining shakllanib boruvchi tuzilmasini mustahkamladi. O‘rta asrlarda, ayniqsa, Samarqand va Buxoroda ilmiy va madaniy rivojlanish, shu jumladan musiqiy san’atda katta yutuqlarga erishildi. Maqomlar musiqiy notalar, tavsiflar va strukturaviy o‘zgarishlar asosida tizimlashtirildi. Budavrda maqom san’ati an’anaviy shakllarga ega bo‘ldi va u faqat diniy marosimlarda emas, balki saroylarda, she’riyatda va zamonaviy san’atda ham keng tarqaldi. Xususan, IX-XII asrlar maqom san’ati tizimi rivojlanib, u ko‘plab shakllarga ega bo‘ldi. Ushbu davrda maqomlarning xususiyatlari aniqlanib, ularning ijrosi musiqiy ta’lim orqali uzlucksiz avlodlarga o‘rgatildi. Arabcha maqom (o‘rin, joy, tovush, parda, daraja va hokazo, ko‘plik shakli maqomot) atamasi o‘tmishda turli ma’noda ishlatalib kelingan. “Musiqa istilohida esa maqom – musiqa cholg‘ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigan tovushlarning joylashadigano‘rni, ya’ni pardalardir... Maqom–ma’lum lad asosiga mos keladigan va muayyan pardadan boshlanadigan kuy va ashulalar majmuasidir. Hozirgi kunga qadar maqom kuy va ashula yo‘llari turkumi ma’nosini ifodalab keldi”.[4.21] Maqom san’ati X asrda ilm-fan va madaniyat markazlarida rivojlanib, o‘zining shakllanib boruvchi tuzilmasini mustahkamladi. O‘rta asrlarda, ayniqsa, Samarqand va Buxoroda ilmiy va madaniy rivojlanish, shu jumladan musiqiy san’atda katta yutuqlarga erishildi. Maqomlar

musiqiy notalar, tavsiflar va strukturaviy o‘zgarishlar asosida tizimlashtirildi. Bu davrda maqom san’ati an’anaviy shakllarga ega bo‘ldi va u faqat diniy marosimlarda emas, balki saroylarda, she’riyatda va zamonaviy san’atda ham keng tarqaldi. Xususan, IX-XII asrlarmaqom san’ati tizimi rivojlanib, u ko‘plab shakllarga ega bo‘ldi. Ushbu davrda maqomlarning xususiyatlari aniqlanib, ularning ijrosi musiqiy ta’lim orqali uzlucksiz avlodlarga o‘rgatildi. O‘zbek maqom san’ati o‘z ildizlarini qadimgi davrlardan, ya’ni xalq qo‘sishlari, epik dostonlarva diniy musiqalar bilan bog‘liq tarzda rivojlantirgan. Islom sivilizatsiyasining tarqalishi bilanmusiqa madaniyati yanada boyigan va ijtimoiy hayotda mustahkamo‘rin egallagan. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ilm-fan va madaniyat markazi bo‘lishi natijasida maqomsan’atiham taraqqiy etgan. Bu davrda Xorazm, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarda musiqa ilmi rivojlanib, bastakorlar va sozandalar tomonidan ilk maqom tizimlari shakllana boshlagan. Erta davr (IX-XII asrlar) Ushbu bosqichda maqom san’ati xalq musiqa an’analari va diniy ohanglar ta’sirida rivojlangan. Bu davrda Abu Nasr Forobi, Ibn Sino kabi olimlar musiqiy nazariyalar yaratib, maqom tizimining ilmiy asoslарini ishlab chiqqanlar. O‘rta asrlar (XIII-XVI asrlar) Bu davrda maqom san’ati murakkab musiqiy tuzilishga ega bo‘lgan. Ayniqsa, Amir Temur va Temuriylar davrida musiqa san’atiga alohida e’tibor qaratilgan. Alisher Navoiy maqom san’ati haqida o‘z asarlarida fikr bildirgan bo‘lsa, Hofiz Tanburi, Ustod Shodiy kabi san’atkorlar maqomlarni mukammallashtirgan. Shu davrda maqom ijrochiligi saroylarda keng tarqalib, maqom ansambllari tashkil etilgan. Yangi davr (XVII-XIX asrlar) Ushbu davrda maqom tizimlari shakllanib, o‘zining an’anaviy ko‘rinishini oldi. “Shashmaqom” tizimi aynan shu davrda yozib olingan va mustahkamlangan. Buxoro amirligi va Xiva xonligida maqom san’ati rivojlanib, hofiz va sozandalar tomonidan yangi yo‘nalishlar kiritilgan.[2.45] Xususan, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘nalishlari shakllanib, o‘ziga xos uslublar vujudga keldi. XX asr va hozirgi davr Sovet davrida maqom san’ati professional darajada rivojlantirildi. Usta Shodmon, Yunus Rajabiy kabi san’atkorlar maqomlarni saqlab qolish va rivojlantirishga kata hissa qo‘shti. Mustaqillik yillarda esa maqom san’atiga e’tibor yana-da kuchayib, milliy meros sifatida e’zozlanmoqda. “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari” va “Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaari” UNESCO tomonidan jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. Hozirgi kunda maqom san’ati maxsus akademiyalar va san’at institutlarida o‘rganilmoqda. Yurtimizda maqom festivallari, konsertlar va ilmiy anjumanlar tashkil etilib, ushbu san’at turini yanada rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi ijrochilar tomonidan maqomlar zamonaviy musiqa elementlari bilan uyg‘unlashtirilgan

=====

holda ijro etilmoqda. Hozirgi zamon o‘zbek maqom cholg‘u ijrochiligida tanbur, dutor, rubob, chang, qonun, g‘ijjak, nay va doira kabi yigirmaga yaqin cholg‘ular qo‘llanilmoqda. Shu jihatdan maqomcholg‘uijrochiligimiz ko‘p asrlik tajribaning hosilasi bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbek maqom san’ati asrlar davomida shakllanib, turli bosqichlarni bosib o‘tgan. Uning rivojlanishida buyuk san’atkorlar, bastakorlar va musiqashunoslar muhimrol o‘ynagan. Bugungi kunda maqom san’ati nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun insoniyatning beba ho madaniy merosi sifatida e’tirof etilmoqda. Maqom san’atining davomiyligini ta’minlash, uni kelajak avlodlarga yetkazish va xalqaro miqyosda targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashkiliy masalalar: Respublikamizda ilk bor O‘zbek milliy maqom san’ati markazini tashkil etildi. Unda maqom san’atyuing ilmiy jixatidan o‘rganish, tarixiy va nazariy asoslarni (maqom tarixi, nazariyasi va amaliyoti) tadqiq etish, ijrochilik yo‘nalishlari amaliyoti (maqom ansamblari faoliyati, maqom anjumanlari, festivallar, ko‘rik-tanlovlari)ni tashkil va amaliyotga joriy etish, maqomlarini o‘rganilishi va ijodiyoti bilan boglik nashrlar (risolalar, ensiklopediyalar, lug‘atlar, notalar va h.k)ni yaratish, ta’lim jarayonini maxsus maqom san’atiga bag‘ishlangan fanlar, dasturlar, o‘quv qo‘llanmalar, darslik va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash kabi masalalar bilan faoliyat yuritilishi ko‘zda tutilgan.[2.34]

Markazning ustuvor vazifalari katorida markazining viloyatlar kesimida MAQOM lokal filiallarini shakllantirish va viloyatlarda namunaviy maqom ansambllarini tashkil etishga e’tibor qaratilgan. Maqsad, o‘zbek maqomotini amaliy ustozlar yordamida tiklash va o‘ziga xoslik jihatlarini o‘rganib amaliyotga joriy etishdan iborat. Maqom ijrochiligida asos deb hisoblangan tanbur soz kabi xalq musiqa cholg‘ularini parda tizimini asliy holatiga keltirish parda tizimi, unga xos ijro uslublari an’analari bo‘yicha) laboratoriysi tashkil etish ham azaliy an’analarni tiklash uchun xizmat qilishi begumondir. Maqom san’atini ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi ilmiy hamda izmiy-amaliy munosabatni talab etadi. Maqomlarni ijrochilik mezonisiz to‘liq tasavvur etish mushkildir. Buning ikkichi sababi o‘zbek maqomlarining o‘ziga xos lokal navlarining mavjudligi bilan ham izohlati o‘rinlidir. Shu nuqtai nazardan maqom san’atini izmiy-tadqiqot yo‘nalishi quyidagicha belgilab olish o‘rinlidir.

- O‘zbek maqomlarning tarixi, nazariyasi va ijrochiligi bilan bog‘liq muammolari bilan shug‘ullanish (maqomshunoslik yo‘nalishi);
- Maqomlarni maqom bastakorligi an’anasida keyingi avlodlar tomonidan yaratilgan va yaratiladigan namunalari bilan to‘ldirilgan yangi maqom nota to‘plamlarini (an’anaviy uslub an’analari mavqeい bilan) yaratish;

-
- Zamonaviy texnologik vositalar bilan jihozlangan yangi formatdagi xozirgi davr maqomlarini yangi namunadagi yozuvlarini (CD, DVD va b.) amalga oshirish;
 - maqom nazariyasi va tarixi bilan bog‘liq ilmiy asoslangan musikiy risolalar ni nashr etish;
 - Maqomlar haqidagi ilmiy asoslangan va keng miqyosdagi targ‘iboti uchun maxsusus “Maqom” ensiklopediyalar va izohli lug‘atlar nashrini tayyorlash maqsadga muvofiqdir.[2.30]

O‘zbek maqom san’ati taraqqiyotining muhim jihatlaridan biri ta’lim jarayonidir. Maqomni idroklash, ularni o‘rganish mezonlarini ta’limda joriy qilishni ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylantirish maksadlidir. Avvalo ularni mezonlarini ishlab chikib, muayyan dasturlar asosida o‘tilishini ta’minlash va bu jarayoni matabgacha ta’lim muassasalaridan boshlash lozimligi e’tirof etiladi. Maqom san’ati bu avvalo ilm, falsafa ekanligini inobatga olgan holda ta’limot ilk jarayoni albatta tinglash san’atini o‘tganish bilan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Buni ta’lim tizimida 3 jarayonga bo‘lish mumkin:

- Boshlang‘ich jarayon tinglash ko‘nikmasini xosil qilish, ongiga va qalblarga maqom ohanglarini singdirish,
- Ikkinci jarayon maqomlarni tinglab, ijro etish va nota orkali kuylashni o‘zlashtirish,
- Uchinchi jarayon maqomlarni tarixiy va nazariy bilimlariga ega bo‘lish, professional ijrochilar va ilmiy mutaxassislarini tayerlash

Xar bir jarayon muayyan davr, bilim olish iste’dodi va albatta intellektual mezonlar bilan bog‘liqdir. Zero, maqom mukammal va murakkab shakldagi musiqiy asardir. Uzoq ohanglari har bir yerdagi tinglovchi uchun mos keladigan va ta’sir eta oladigan salohiyatga ega. Uni targ‘iboti ham o‘ziga xos mazmun kasb etuvchiligi bilan harakterlanadi. Eng avvalo mukammal maqomdon ustozlarni jalb etish lozim. Ularning ustoz-shogird tarbiyaviy uslubida mahr va bilimli ijrochilarni, sozanda va xonandalarni hamda maqom bilimdonlarini tarbiyalash lozim bo‘ladi. So‘ngra ularni mukammal ijrolarini zamonaviy vositalar orqali jonli ijro orqali bevosita tinglovchiga yetkazish maqsadli bo‘ladi.

2017-yil badiiy jamoalar safidagi Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambl va maqom ijrochiligini o‘ziga kasb bilgan san’atkorlar uchun “Maqom markazi” tashkil etildi. Markaz qoshida ovoz yozish studiyalari ochildi. Barcha viloyatlar maqom ansamblari safi kuchaytirildi, ta’lim muassasalarini bitirib chiqqan yosh mutaxassis xodimlar nafaqat ijodiy, balki ilmiy yo‘nalishda ham tadqiqot ishlarini boshlab yuborishdi. Xorazm viloyati maqom

ijrochilari uchun ham “Maqom markazi” mavjud. Maqom jamoasining Buxoro viloyati bo‘limida esa maqomga bo‘lgan e’tibor avvaldan kuchli bo‘lganligi sabab hozirda bu san’at ijrochiligi yuksak darajada rivojlanmoqda. Darhaqiqat, so‘nggi yillarda Yangi Ozbekiston muhitida ulkan tarixiy jarayonlar san’at sohasida ham oz infkosini topmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi tayanch oliy ta’lim muassasasi — Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti tashkil etilganligi ham olamshumul voqeа sifatida e’tirofga loyiqdir. Mazkur institut yurtimizda maqom, xalq musiqasi, baxshichilik va katta ashula ijrochiligini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablar va an’analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o‘rganish va qayta tiklash bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish kabi qator vazifalarni bajaradi.

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti o‘z ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha “ustoz-shogird” maktablarini tashkil etib, rivojlantirishi, shuningdek, bu sohaga kirib kelayotgan yoshlar uchun muntazam ravishda mahorat darslarini o‘tkazib borishi ham muhtasham maqom sanatimizning taraqqiy etishida muhim omil bolib xizmat qiladi.

Insoniyat tafakkurining yorqin mahsuli bo‘lgan maqom doimo tinglovchilar, muxlislarni hayratga solib kelgan yirik musiqiy qomusdir. Milliy maqomlarimizda xalqimizning qadimiy tarixi, ma’naviy dunyosi, badiiy falsafasi, ruhi mujassam. Shu bois necha asrdirki, maqom bebaho madaniy meros sifatida ardoqlanib kelinmoqda. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, maqom ijrochiligi, baxshichilik va katta ashula yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasasi-Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti tashkil etilib, ayni paytda mazkur oliy dargoh o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifani mas’uliyat bilan uddalashga intilmoqda. Maqom san’ati bo‘yicha bilim va tushunchalar, tarixiy va milliy an’analarni puxta egallagan yosh kadrlarni tayyorlash hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni, madaniyat va san’at sohasida ilm-fan bo‘yicha erishilgan ilg‘or yutuqlarni tatbiq etish institut jamoasi oldiga qo‘yan eng oliy maqsadlardandir. 2020-yil Madaniyat vazirligi va O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

=====

tashabbusi bilan “Farzandlarimizni maqomot ila kamolotga eltaylik” shiori ostida o’tkazilgan I respublika ilmiy-amaliy vebinari ham ayni mana shu maqsadga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Boshlang‘ich maqom ta’limining metodologik muammolariga bag‘ishlangan anjumanda 2020-2021 o‘quv yilidan boshlab Toshkent shahri, Farg‘ona, Buxoro va Xorazm viloyatlarida tashkil etilgan, maqom san’atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlardagi o‘qitish uslublari, boshlang‘ich maqom ta’limi tizimidagi mavjud muammolarni hal etish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Bu maktablar maqom san’atini boshlang‘ich bosqichda o‘rgatuvchi ilk ta’lim dargohlaridir. Shunday ekan, bu maskanlarda maqom nazariyasi va amaliyotini qanday o‘rgatish kerak va bunda soha mutaxassislarining yondashuvi va e’tibori, avvalo, nimaga qaratilishi lozim? Ayni shu savollar ustoz san’atkorlar, musiqashunos olimlar, san’at ustalari, xonandayu sozandalarning muhokama markazida bo‘ldi. Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov maqom o‘qitishdagi muammolar haqida so‘z yuritib, ko‘plab iste’dodli sozanda va xonandalarning musiqiy savodi yo‘qligi ta’lim jarayonidagi og‘riqli nuqtalardan biri ekanini ta’kidladi. Bu borada ixtisoslashgan maktab-internatlarda nazariya va amaliyotni yonma-yon olib borish, boshlang‘ich ta’lim dargohlari o‘zbek milliy musiqasining yadrosi bo‘lishi kerakligini ilmiy va hayotiy misollar bilan asoslab berdi. San’atshunoslik fanlari nomzodi, professor, maqomshunos olim Otanazar Matyoqubov “Maqomning ilmi-uning o‘q tomiri, amaliyoti esa yondosh tomiridir” so‘zlarini vebinar ishtirokchilariga izohlab berar ekan, maqomning amaliyoti har xil shakllarga integratsiya bo‘lsa ham, uning nazariyasi turg‘un va bir xil tamoyil asosida tuzilishi kerakligini alohida qayd etdi. Vebinarda Buxoro, Farg‘ona va Xorazm maqom maktab-internatlarining rahbar va o‘qituvchilari ham so‘zga chiqib, maqom ta’limi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar juda kamligi va bu borada tayanch o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni yaratish va targ‘ib qilish bo‘yicha mavjud bir qator muammolarni o‘rtaga tashladi. Shu bilan birga, boshlang‘ich maqom ta’limini shakllantirish xususida jo‘yali va qiziqarli tavsiyalar berildi. Jumladan, Buxoro maqom maktabi o‘qituvchisi Tolib Temirovning “Maqomlarni farzandlarimizga bog‘cha yoshidan o‘rgatib borish, ya’ni musiqa mashg‘uloti darslarida 5-10 daqiqa “soqiynama”, “ufor” kabi yengil maqom usullarini qo‘yib berish orqali bolalarimiz qulog‘ida milliy ohanglar va usullarning o‘troqlashishiga erishishimiz mumkin”, degan taklifi ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otdi. Insoniyat tafakkurining yorqin mahsuli bo‘lgan maqom doimo tinglovchilar, muxlislarni hayratga solib kelgan yirik musiqiy qomusdir. Aytish joizki, shu kungacha maqom ta’limida uning amaliyotiga e’tibor kuchaytirilib, nazariy tomonlari ancha oqsagan edi. Boshlang‘ich

=====

ta'lim bosqichiga maqom san'atining kirib kelishi esa uning turfa ijodiy mezonlarini ohib beradi va bu borada mavjud muammoli masalalarining o'z yechimini topishida turtki vazifasini bajaradi. Ilmiy-amaliy vebinarda tashkilotchilar maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning kelgusi yo'nalishlarini belgilash, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini joriy qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish borasida soha mutaxassislarining fikr-mulohazalari asosida takliflar ishlab chiqish rejalashtirildi.

Xulosa

Maqom san'ati – o'zbek musiqiy merosining yuksak cho'qqilaridan biri bo'lib, o'zida chuqur estetik, falsafiy va ma'naviy qadriyatlarni mujassam etadi. XXI asrda bu san'at turi faqatgina tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki zamonaviy jamiyatda ma'naviy uyg'onish, madaniy o'zlikni anglash va yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya sharoitida ko'plab xalq madaniyatları bir-biriga singishib ketayotgan bir paytda, maqom san'ati milliy o'zligimizni saqlashda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. U xalqning tarixiy xotirasi, ruhiyati va madaniy tafakkurining yorqin namunasidir. Maqom asarlarida insonparvarlik, sabr-toqat, muhabbat, kamtarlik, haqiqatga intilish kabi ezgu g'oyalar kuylanadi. Bu esa uni yosh avlodni estetik va ma'naviy tarbiyalashda beqiyos vosita qiladi. Bugungi kunda maqom san'ati bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida ushbu yo'nalish bo'yicha maxsus fanlar o'qilib, ustoz-shogird an'anasi asosida yangi ijrochilar yetishib chiqmoqda.

Milliy maqom san'at irivoji yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor barcha ijodkorlarga ilhom, ijod zavqini bag'ishlamoqda. O'zbek xalqi ulkan va betakror musiqiy merosga ega. O'zbek milliy musiqa san'atining gultoji sanalgan "Shashmaqom" va uning turkumlari mumtoz she'riyatimiz bilan uyg'un holda g'oyat go'zal san'at namunasini hosil etganki, bu yuksak musiqaga jahon ahli hayrat bilan qaraydi. Mamlakatimizda har ikki yilda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, mazkur noyob musiqa merosimiz targ'ibotiga oid ko'rik-tanlovlar, ijodiy loyihalarning o'tkazilishi yaxshi an'anaga aylangan. 2003-yilda "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy madaniy merosi durdonasi", deb tan olinishi maqom san'atiga bo'lgan e'tibor va e'tirofning amaliy ifodasidir. Poytaxtimizda O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilib, hozirda samarali faoliyatini boshlashi ham ulkan voqealarning davomidur. Biz uchun bebaaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda. Maqom qalblarga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi bu qadimiy

merosimizni o‘zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklar ham sehrlanib, sel bo‘lib tinglashida yaqqol namoyon bo‘ladi. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unibo‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqr joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar .

1. https://daryo.uz/2018/09/06/shahrisabz-shahrida-1-xalqaro-maqom-san%25ca%25bcati-anjumani-tantanali-ochildi/?utm_source=FB/
2. Begmatov S. O‘zbek maqom san’ati: XXI asr taraqqiyot tamoyillari. Sh., 2018
3. “Maqom san’atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlari” II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Z., 2024
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalqaro maqom anjumanidagi nutqi.- T. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2018-yil 7-sentabr
5. Xalq so‘zi. Dunyo xalqlarini birlashtirgan anjuman. 2024-yil. 29-iyun
6. <file:///C:/Users/Hp/Downloads/YO'ITJ++0432.pdf>
7. <file:///C:/Users/Hp/Downloads/CAJMRMS+0316.pdf>
8. <https://www.jizzax-ovozi.uz/yangiliklar/4062-maom-sanatining-nazarij-va-amalij-asoslari-muammo-va-echimlar.html>
9. <https://www.jizzax-ovozi.uz/yangiliklar/4063-ananalar-jetadi-davom.html>
10. <https://uzreport.news/society/maqom-san-ati-uchun-asosiy-mavzu-eng-avvalo-shaxs-uning-erki-va-qadri-tinchlik-totuvlik-ha>
11. <https://uzhurriyat.uz/2024/06/27/zomin-dunyo-maqomchilarini-chorlamoqda/>